



**YASHIL IQTISODIYOTDAGI GLOBAL TENDENSIYALAR VA
INNOVATSIYALAR**

Chorsaidova Munisa Azamat qizi

Termiz davlat pedagogika instituti texnologik ta'lim yo'nalishi 2-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: Mirzakulova Risolat Musurmankulovna

Termiz davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

Annotatsiya Ushbu maqolada yashil iqtisodiyot sohasidagi global tendensiyalar va innovatsion yondashuvlar tahlil qilinadi. Barqaror rivojlanish maqsadlari asosida shakllanayotgan yashil iqtisodiyot kontseptsiyasi XXI asrda dunyo iqtisodiyotining ajralmas qismiga aylanmoqda. Mamlakatlar va xalqaro tashkilotlar tomonidan amalga oshirilayotgan ekologik tashabbuslar, toza energiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va innovatsion texnologiyalar orqali iqtisodiy o'sish hamda ekologik xavfsizlikni ta'minlash yo'llari keng muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar: Yashil iqtisodiyot, ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar, ekologik barqarorlik, bandlik, resurslardan samarali foydalanish, barqaror rivojlanish.

So'nggi yillarda dunyo miqyosida ekologik muammolar keskin tus olmoqda. Iqlim o'zgarishi, biologik xilma-xillikning kamayishi, havoning ifloslanishi kabi muammolar iqtisodiyot va jamiyat hayotiga bevosita ta'sir qilmoqda. Shu bois, an'anaviy iqtisodiy modeldan voz kechib, barqarorlikka asoslangan yangi yondashuv – yashil iqtisodiyot konsepsiyasiga ehtiyoj ortmoqda. Yashil iqtisodiyot – bu iqtisodiy o'sishni ta'minlaydigan, shu bilan birga, tabiiy resurslar va ekologik muvozanatni saqlaydigan tizimdir. Ushbu maqolada ushbu sohadagi global tendensiyalar, yetakchi davlatlarning tajribalari, va innovatsion texnologiyalarning o'rni chuqur tahlil qilinadi. Bugungi kunda innovatsion taraqqiyotga erishish, iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, cheklangan resurslardan maksimal darajada oqilona foydalanish masalalari nafakat milliy iqtisodiyotlar, balki butun dunyo hamjamiyati oldida amalga oshirilishi lozim bo'lgan muhim vazifalardan sanaladi. Chunki, hozirgi davr iqtisodiyoti muayyan bir tizim sifatida nafaqat iqtisodiy o'sish, texnik mukammallik hamda raqobatbardoshlik tamoyillari asosida shakllanishi, balki har bir inson yashash sharoitini yaxshilashi hamda kelajak avlodlar uchun qulay iqtisodiy sharoit yaratishga yo'naltirilgan bo'lishi lozim. Iqtisodiyotning bunday transformatsiyasi bugungi kunda "yashil iqtisodiyot" asosidagi barqaror taraqqiyot deb nomlanadi.





Bugungi kunda ko'plab davlatlar yashil iqtisodiyotni milliy strategiyalar darajasida qo'llab-quvvatlamoqda. Xususan, Yevropa Ittifoqi 2050 yilgacha "karbonsiz iqtisodiyot"ga o'tishni maqsad qilgan bo'lsa, Xitoyda esa toza energiyaga sarmoyalar ko'paymoqda. AQShda esa qayta tiklanuvchi energiya manbalariga o'tish jarayoni tezlashmoqda. Innovatsiyalar bu jarayonning yuragi hisoblanadi. Quyosh panellari, shamol turbinalari, elektromobillar, aqlli shahar texnologiyalari, chiqindilarni qayta ishlash tizimlari va raqamli monitoring vositalari yashil iqtisodiyotning asosiy yo'nalishlariga aylanmoqda. Sun'iy intellekt, IoT (Internet of Things) va katta ma'lumotlar (Big Data) ekologik barqarorlikni boshqarishda yangi imkoniyatlar yaratmoqda.

Bundan tashqari, yashil moliya va "yashil obligatsiyalar" kabi moliyaviy vositalar orqali ekologik loyihalarni moliyalashtirish kengaymoqda. Innovatsion startaplar ekologik muammolarni hal qilishda faol ishtirok etmoqda.

Tadqiqotda tizimli yondashuv asosida tahlil, taqqoslash va statistik usullar qo'llanildi. Asosiy manbalar sifatida hukumat hisobotlari, xalqaro tashkilotlar ma'lumotlari, hamda mahalliy iqtisodiy ko'rsatkichlar tahlil etildi. Shuningdek, ekspert fikrlari va ommaviy so'rovlar orqali ijtimoiy kayfiyat va jamiyatda yuz berayotgan real o'zgarishlar baholandi. Barchamizga ma'lumki, iqtisodiy rivojlanishning har bir bosqichida atrof-muhit, tabiat iqtisodiyotning asosiy elementi, omili sanaladi. Tabiat va iqtisodiyotning mukammal muvozanatlashgan o'zaro munosabati yashil iqtisodiyot konsepsiyasida namoyon bo'ladi. Yashil iqtisodiyot oxirgi yigirma yillik mobaynida shakllangan iqtisodiy-ijtimoiy yo'nalish bo'lib, unga ko'ra iqtisodiyot tabiiy muhitning mustaqil bo'lmagan komponenti hisoblanib, aynan tabiiy muhit doirasida shakllanadi va rivojlanadi. Yashil iqtisodiyotning bosh vazifasi ishlab chiqarish hamda iste'mol qilish jarayonlarini ekologik standartlarga mos tarzda o'zgartirish (ecologization) dan iboratdir. Yashil iqtisodiyot nazariyasi quyidagi uch aksiomalar asosida qurilgan:

Globallashuv jarayoni turlicha qabul qilinadi va baholanadi. Rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda unga turlicha munosabatda bo'lishadi. Bir tarafdin, xorijiy raqobat uchun bozorlarning ochilishi, xalqaro savdo, kapital va mehnat resurslari ko'chib yurishining kuchayishi jahon ishlab chiqarish omillaridan samaraliroq foydalanish, jahon ishlab chiqarishini oshirish uchun yangi imkoniyatlar yaratadi va unda ishtirok etuvchi mamlakatlar uchun yutuq deb atash mumkin. Boshqa tarafdin, global bozorlarda raqobatning kuchayishi, xo'jalik faoliyatining keng erkinlashuvi mamlakatlar uchun xavf-xatarlar tug'dirishi muqarrardir. Rivojlangan





mamlakatlar uchun buning foydali jihatlari aniq ko'rinib turibdi, biroq rivojlanayotgan mamlakatlar haqida, ayrim hollarda, bunday deb bo'lmaydi. Ularning ko'pchiligi baynalminallashuvda xomashyo va mehnat resurslari yetkazib beruvchilar sifatida ishtirok etib, rivojlangan va qudratliroq davlatlarga qaram bo'lib qolishini e'tirof etish mumkin.

Globallashuv jarayoni jahon iqtisodiyotida sezilarli o'zgarishlarga olib kelmoqda. Yangi iqtisodiy model va global integratsiyaning kuchayishi, shuningdek, texnologik yangilanishlar va moliyaviy tizimlarning o'zgarishi jahon iqtisodiyotining rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatmoqda. Ushbu maqolada globallashuv sharoitida jahon iqtisodiyotining rivojlanish tendensiyalari ko'rib chiqiladi.

1. Xalqaro savdo va investitsiyalarning o'sishi. Globallashuv jarayonida xalqaro savdo va kapital harakati kuchaymoqda. Tovarlar va xizmatlarning transchegaraviy harakati o'sib borar ekan, dunyo bo'ylab ishlab chiqarish va iste'mol zanjirlari tobora integratsiyalanib bormoqda. Xalqaro investitsiyalarning oshishi ham iqtisodiy o'sishning muhim omili hisoblanadi, chunki u global bozorlar o'rtasida integratsiyani kuchaytiradi va mamlakatlar o'rtasida resurslarni taqsimlashni optimallashtiradi.

2. Texnologik yangilanish va raqamli iqtisodiyot. Texnologik inqilob va raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi jahon iqtisodiyotida yangi tendensiyalarni shakllantirmoqda. Yangi texnologiyalar, jumladan, sun'iy intellekt, robototexnika, katta ma'lumotlar (big data), blokcheyn va raqamli valyutalar ishlab chiqarish va savdoda yangi imkoniyatlarni yaratmoqda. Shuningdek, elektron tijoratning o'sishi va raqamli to'lov tizimlarining joriy etilishi iqtisodiy jarayonlarni soddalashtirmoqda va xalqaro savdo hajmini oshirmoqda.

3. Moliyaviy tizimlar va global moliya bozorlarining o'zgarishi. Moliyaviy tizimlar va bozorlar o'rtasida o'zaro bog'liqlik kuchaymoqda. Global moliyaviy inqirozlar va ularning ta'siri, xalqaro moliyaviy institutlar va davlatlar o'rtasidagi hamkorlik, shuningdek, moliyaviy regulyatsiyalar va xavfsizlik choralari iqtisodiyotda barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan yangi usullarni ishlab chiqishga olib keldi. Yangi moliyaviy instrumentlar, masalan, kripto-valyutalar va fintech (moliyaviy texnologiyalar) sektori rivojlanmoqda.

4. Ijtimoiy va ekologik masalalar. Globallashuv jarayonida ijtimoiy va ekologik masalalar ham katta ahamiyat kasb etmoqda. Atrof-muhitni muhofaza qilish, barqaror rivojlanish va ijtimoiy tenglikni ta'minlash bo'yicha global ko'p tomonlama shartnomalar va tashabbuslar amalga oshirilmogda. Ekologik barqarorlikni ta'minlash





va energiya samaradorligini oshirish, shuningdek, ijtimoiy adolatni ta'minlash iqtisodiy rivojlanishning asosiy yo'nalishlariga aylangan.

5. Multilateral va regional hamkorlik. Global integratsiya jarayonida mamlakatlar o'rtasidagi iqtisodiy va savdo aloqalari kuchaymoqda. Xalqaro tashkilotlar, masalan, Jahon savdo tashkiloti (WTO), Xalqaro valyuta jamg'armasi (IMF), Jahon banki va boshqa ko'plab regionlararo va xalqaro tashkilotlar global iqtisodiy muammolarni hal qilishda muhim rol o'ynaydi. Shuningdek, regional iqtisodiy integratsiya va savdo kelishuvlari (masalan, Yevroosiyo Ittifoqi, AFTA va boshqalar) iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishga qaratilgan yangi mexanizmlar sifatida rivojlanmoqda.

Bir qarashda oddiy iqtisodiyotdan yashil iqtisodiyotga o'tish ancha ko'p mablag' talab etadigan qiyin jarayondek tuyuladi, ammo, yashil iqtisodiyot tamoyillariga amal qilish orqali resurlarni tejash, ishlab chiqarish harajatlarini minimallashtirish, uzoq muddatga xizmat qiluvchi va to'liq yangilangan ishlab chiqarish tizimini yo'lga qo'yish imkoniyati yaratiladi. "Worldwatch Institute" taqdim etgan ma'lumotlarga ko'ra, o'rta hajmdagi iqtisodiy tizimga ega mamlakatlar uchun yashil iqtisodiyotga o'tish oddiy ishlab chiqarish natijasida yuzaga keluvchi muammolarni echishga qaraganda kamroq mablag' talab etadi. Shuni ham alohida ta'kidlash kerakki, har bir mamlakat o'z iqtisodiy, tabiiy va inson resurslari potentsiali, yutuq va kamchiliklaridan kelib chiqqan holda, o'z yashil iqtisodiyotini yaratadi chunki, hozirda universal yashil iqtisodiy tizim modeli mavjud emas. O'zbekiston iqtisodiyotini modernizatsiyalash sharoitida yashil iqtisodiyotning o'rnini yuqori baholash mumkin. Chunki, mamlakatimizda yashil iqtisodiyotni shakllantirish masalasining muhim ekanligi tabiiy resurs potentsialini saqlash, atrof-muhitga zarar keltirmaydigan ishlab chiqarishni tashkil etish va shu bilan bir qatorda yuqori o'sish sur'atlariga erishish lozimligi bilan xarakterlanadi. O'zbekistonning yuqori tabiiy resurs va inson kapitaliga ega ekanligini unda yashil iqtisodiyotni rivojlantirish uchun ko'plab imkoniyatlar mavjudligini ko'rsatadi. O'zbekistonda yoqilg'i-energetika resurslarining hozirgi hajmda iste'mol qilinishi davom etsa, ular mamlakatning yoqilg'i-energetikaga bo'lgan ehtiyojini 20-30 yil davomida ta'minlab berishi bashorat qilingan. Shu sababli ham iqtisodiyotni yashillashtirish jarayonini ushbu sohaga keng targ'ib etish, O'zbekistonda qayta tiklanuvchi, alternativ energiya manbalaridan foydalanish darajasini oshirish muhim masalalardan biri hisoblanadi. Shuningdek, BMT "Atrof muhit muhofazasi va taraqqiyot xalqaro komissiyasi" ning hisobotida "Kelajak rivojlanishi, ravnaqi shunday energiyalardan foydalanish formasi, ya'ni, atrof muhit holatiga zarar etkazmaydigan,





xavfsiz, tiklanadigan, kafolatlangan, doimiy o‘sib, tiklanib boruvchi va foydalanish imkoniyati mavjud bo‘lgan energiyalarga bog‘liq bo‘lib qoladi”, deya qayd etilganligini e’tirof etish joiz. O‘zbekistonning quyosh energiyasi bo‘yicha yalpi salohiyati 50973 mln. tonna neft ekvivalentiga (mln.t.n.e.) teng bo‘lsa, shamol energiyasining yalpi salohiyati 2,2 mln.t.n.e. deb baholanadi. Bu sohada yurtimizda bir qancha islohotlar amalga oshirilgan bo‘lib, ularga quyidagilarni misol qilib keltirish mumkin: Yashil iqtisodiyotga o‘tish nafaqat ekologik, balki keng ko‘lamli ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni ham talab qiladi. Ushbu jarayonda yangi ish o‘rinlarining yaratilishi, innovatsion texnologiyalarning joriy etilishi va aholining ekologik ongining o‘sishi kuzatilmoqda. Shuningdek, bu model jamiyatda sog‘lom turmush tarzini shakllantirish va barqaror iqtisodiy taraqqiyotga erishishda muhim vosita bo‘lib xizmat qilmoqda.

Hulosa Yashil iqtisodiyot – bu nafaqat ekologik xavfsizlik, balki yangi iqtisodiy imkoniyatlar manbai. U insoniyatga tabiat bilan uyg‘unlikda yashashni, resurslardan oqilona foydalanishni va kelajak avlodlarga sog‘lom muhitni meros qilib qoldirishni ta’minlaydi. Innovatsiyalar esa bu yo‘lda asosiy harakatlantiruvchi kuch bo‘lib xizmat qilmoqda. Shunday ekan, har bir davlat, har bir jamiyat, hatto har bir shaxs yashil iqtisodiyot sari dadil qadam tashlashi lozim. Chunki bu faqat bugungi emas, balki kelajak avlodlar oldidagi burchimizdir.

Foydananilgan adabiyotlar

1. Mirzakulova Risolat Musurmankulovna ” YASHIL MOLIYA VA BARQAROR INVESTITSIYA STRATEGIYALARI: ZAMONAVIY YONDASHUVLAR VA ISTIQBOLLAR” MANAGEMENT, MARKETING AND FINANCE INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL VOLUME 2 ISSUE 3. -158-160, 2025-yil. <https://doi.org/10.5281/zenodo.15269292>
2. Mirzakulova Risolat Musurmankulovna “YASHIL IQTISODIYOTGA O‘TISH ZARURIYATI. THE NEED FOR A TRANSITION TO A GREEN ECONOMY. НЕОБХОДИМОСТЬ ПЕРЕХОДА К ЗЕЛЁНОЙ ЭКОНОМИКЕ” . МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА. -SJIF2024 =5.444, 2025-yil.
3. Mirzakulova Risolat Musurmonkulova, Qodirova Shohista “QISHLOQ XO‘JALIGINI YASHIL IQTISODIYOT ASOSIDA BARQAROR RIVOJLANTIRISH” Международный научный журнал





№ 33 (100), часть 1 «Новости образования: исследование в XXI веке» Май 2025.

4. Mirzakulova Risolat Musurmankulovna, Qurbonboyeva Marhabo Davlatboyevna “YASHIL ENERGETIKA BARQAROR IQTISODIY RIVOJLANISH OMILI SIFATIDA” ANALYSIS OF MODERN SCIENCE AND INNOVATION. -166-171, 2025-yil.
5. Mirzakulova Risolat Musurmankulovna “WAYS OF EFFECTIVE USE OF COCKTAIL RESOURCES IN ECONOMIC NETWORKS” EUROPEAN INTERNATIONAL JOURNAL OF MULTIDISCIPLINARY RESEARCH AND MANAGEMENT STUDIES. -100-103, 2023-yil. DOI: <https://doi.org/10.55640/eijmrms-03-02-19>
6. Baqirov, T. (2021). “Yashil iqtisodiyotga o‘tish: O‘zbekiston tajribasi.” O‘zbekiston Respublikasi ilmiy jurnali.
7. «2019 — 2030-yillar davrida O'zbekiston Respublikasining «yashil iqtisodiyot» iqtisodiyotiga o'tish strategiyasini belgilash to'g'risida» O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4477 sonli Qarori
8. A.V.Vaxabov, Sh.X.Xajibakiyev. Yashil iqtisodiyot: Darslik. 2-nashr, qayta ishlangan va to'ldirilgan / i.f.d., prof. A.V.Vaxabovning umumiy tahriri ostida. - Toshkent: "ZEBO PRINT", 2023. - 264 b.
9. Yaxshimuratova Sevara Rustam qizi, "MAMLAKAT IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISHDA "YASHIL" IQTISODIYOTNING O'RNI" Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot 2024-yil, oktyabr. № 10-son
10. https://uz.wikipedia.org/wiki/Yashil_iqtisodiyot

